| <b>Xurramov Anvar Jumanazarovich</b>                                                                                                                                                                |     |
| Fundirlash konsepsiyasi – kelajak pedagoglarining asosiy poydevori .....                                                                                                                            | 296 |
| <b>G'oyimov Umar Eshmurodovich</b>                                                                                                                                                                  |     |
| Pedagogik oliy ta'lim muassasalarida qo'llanilayotgan metodik ta'minotning<br>hozirgi holati: tahliliy o'rganish .....                                                                              | 301 |
| <b>Xujamkulova Nafisa Ruzikulovna</b>                                                                                                                                                               |     |
| Pedagogik metod: intellekt xaritalar yordamida lazerlarning amaliyotda<br>qo'llanilish sohalarini vizuallashtirish .....                                                                            | 307 |
| <b>Olimjonova Nigina Sobirjon qizi</b>                                                                                                                                                              |     |
| Maktabgacha ta'lim tashkiloti guruhlarida rivojlanish markazlarini tashkil etish .....                                                                                                              | 312 |
| <b>G. R. Ibragimova, Normamatova Rayhona Alisher qizi</b>                                                                                                                                           |     |
| Pedagogik o'yinlar va interaktiv faoliyatlarning ta'lim jarayonidagi o'rni .....                                                                                                                    | 317 |
| <b>Qodirova Sevara Shuxratovna</b>                                                                                                                                                                  |     |
| Shaxs psixikasi rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar .....                                                                                                                                         | 325 |
| <b>Boboyeva Maxsuda Ataxonovna, Rajapboyeva Ozoda Shuxrat qizi, Karimova Malohat O'rinboy qizi</b>                                                                                                  |     |
| Jismoniy tarbiya darslarida innovatsion pedagogik texnologiyalardan<br>foydalanishning sifat samaradorligi .....                                                                                    | 329 |
| <b>Hasanova Dilnora Rustam qizi, Ehnazarov Jo'raqul</b>                                                                                                                                             |     |
| Integratsion yondashuv asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining<br>kasbiy sifatlarini shakllantirishning metodik tizimi .....                                                          | 333 |
| <b>Boynazarova Munajat</b>                                                                                                                                                                          |     |
| O'yin faoliyati orqali kasbga yo'naltirish mexanizmlari .....                                                                                                                                       | 337 |
| <b>Allaberdiyeva Kumri Xamrayevna, Toshmurodova Marjona</b>                                                                                                                                         |     |
| Модель методического сопровождения педагогов доо в развитии математической грамотности<br>и логического мышления старших дошкольников на основе игровых технологий .....                            | 340 |
| <b>Гаухар Джанпеисова</b>                                                                                                                                                                           |     |
| Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining baholash malakasini rivojlantirish<br>muammolari va imkoniyatlari .....                                                                               | 347 |
| <b>Majidova Hilola Eshquvat qizi</b>                                                                                                                                                                |     |
| Формирование коммуникативной компетенции студентов на занятиях узбекского и<br>иностраных языков: интегративный подход .....                                                                        | 351 |
| <b>Турланова Сауле Дадажановна</b>                                                                                                                                                                  |     |
| Ta'lim jarayonida digital storytelling metodidan foydalanish orqali o'quvchilarning<br>ijodiy yozuv kompetensiyasini shakllantirish .....                                                           | 357 |
| <b>Maxsetova Zuxra Torebayevna</b>                                                                                                                                                                  |     |
| Futbol mashg'ulotlarida kreativ yondashuvlarni qo'llash amaliyoti .....                                                                                                                             | 361 |
| <b>Karimov Odiljon Baxadirovich</b>                                                                                                                                                                 |     |
| Oliy ta'limda talabalarining kreativligini rivojlantirishda sun'iy intellektdan foydalanishning<br>nazariy-metodologik asoslari (amaliy matematika yo'nalishi misolida) .....                       | 364 |
| <b>Samatova Munira Dilshod qizi</b>                                                                                                                                                                 |     |
| Подготовка к школе как условие развития коммуникативных умений у детей<br>дошкольного возраста с тяжёлыми нарушениями речи .....                                                                    | 368 |
| <b>Ахмедова З. М., Абдурахмонова М. А.</b>                                                                                                                                                          |     |
| Boshlang'ich sinf o'quvchilarini rivojlantiruvchi ta'limni amalga oshirishga talaba<br>motivatsiyaviy-qadriyatli munosabatlari tizimi shakllanganligi darajalari va ularning sifatiiy tavsifi ..... | 373 |
| <b>Ergasheva Matluba Burxonovna</b>                                                                                                                                                                 |     |
| Ritmik va ijodiy gimnastika mashqlari orqali bolalarda estetik didni shakllantirish metodlari .....                                                                                                 | 378 |
| <b>Kamchiyev Salimberdi Xudayberdiyevich</b>                                                                                                                                                        |     |

|                                                                                                                                               |     |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| Interaktiv ta'lim platformalari asosida informatika va axborot texnologiyalari faniga oid kompetensiyalarni rivojlantirish samaradorligi..... | 382 |
| <b>Karimov Feruz Raimovich</b>                                                                                                                |     |
| Koxlear implantli bolalar og'zaki nutqini shakllantirishda qo'llaniladigan zamonaviy usullar .....                                            | 386 |
| <b>Mamasiddikova Maftuna Akbarjon qizi</b>                                                                                                    |     |
| Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining media savodxonligini oshirishning zamonaviy pedagogik texnologiyalari.....                            | 389 |
| <b>Masharibova Lobar Rayimberganovna</b>                                                                                                      |     |
| Duduqlanuvchi bolalarda verbal muloqot ko'nikmalarini o'yin texnologiyalari asosida rivojlantirish.....                                       | 393 |
| <b>Mirtoeva Shohruza Ibjohimjon qizi</b>                                                                                                      |     |
| Maktab voleybol sport to'garaklari mashg'ulotlarida harakatli o'yinlardan foydalanish .....                                                   | 396 |
| <b>Ortug'mat Jumanov, Zarina Abdusattarova</b>                                                                                                |     |
| Talabalar mustaqil ta'limini samarali tashkil etish omillari va mexanizmlari.....                                                             | 400 |
| <b>Raxmatova Nargiza Dolibayevna</b>                                                                                                          |     |
| Bola nutqining rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi salbiy va ijobiy muhit omillari. XXI asr taraqqiyotida nutq faoliyatining shakllanishi..... | 403 |
| <b>Ro'ziyeva Nozimaxon Oybek qizi</b>                                                                                                         |     |
| Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarining ijodkorligini ijtimoiy-pedagogik faoliyatda rivojlantirish texnologiyasi.....        | 406 |
| <b>Sadikova Dilafuz Xusanovna, Butayeva Gavhar Xudoyorovna</b>                                                                                |     |
| Fan va tabiatni tanishtirish orqali maktabgacha katta yoshdagi bolalarni rivojlantirish usullari .....                                        | 410 |
| <b>Sh. T. Musulmonova</b>                                                                                                                     |     |
| 15-17 yoshgacha bo'lgan kurashchilarni yillik yuklamalarini taqsimlash .....                                                                  | 413 |
| <b>Qirgiboyev Shaxbozbek Aslidin o'gli, Xamidjonov Muhammadbobir Ulug'bek o'gli</b>                                                           |     |
| Davlat boshqaruvi tizimida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash va prognozlash metodologiyasi.....                                          | 416 |
| <b>Sotvoldiyev Akbarjon Umidjon o'g'li</b>                                                                                                    |     |
| O'smirlar orasida tengdoshlar bosimi va uning psixologik ta'siri .....                                                                        | 419 |
| <b>Toshpo'latova O'giloy Baxtiyor qizi</b>                                                                                                    |     |
| Boshlang'ich ta'limda o'quvchilarni shaxsiy rivojlantirish.....                                                                               | 422 |
| <b>Turdiyeva Raxima Kurbanovna</b>                                                                                                            |     |
| Matnli topshiriqlar vositasida ona tili darslarida o'quvchilarning kreativ tafakkurini rivojlantirish .....                                   | 426 |
| <b>Yulbarsov Ochilbek Obidjon o'g'li, Isayeva Gulnur Shakirjanovna</b>                                                                        |     |
| Методы исследования сенсомоторных эффектов и внимания у детей дошкольного возраста.....                                                       | 432 |
| <b>Г. С. Алиходжаева</b>                                                                                                                      |     |
| Роль театрализованной деятельности в формировании представлений о родине у дошкольников ..                                                    | 436 |
| <b>Г. С. Алиходжаева, У. О. Мамадалиева</b>                                                                                                   |     |
| Логическое мышление детей 5–7 лет в вариативном дошкольном образовании: нормативные основания и концептуальная модель .....                   | 440 |
| <b>Г. Э. Джанпеисова, В. В. Горбунова, Э. З. Убайдуллаева</b>                                                                                 |     |
| O'qitishning maqsad va vazifalarini talabalarning bo'lajak pedagogik faoliyatini modellashtirish sifatida ...                                 | 444 |
| <b>Murodova Umida Dilmurodovna</b>                                                                                                            |     |
| Развитие прагматической компетенции аудирования с помощью инновационных технологий в обучении немецкому языку .....                           | 449 |
| <b>Саидова Махсудахон Аббасовна</b>                                                                                                           |     |
| Развитие профессиональной подготовки будущих воспитателей в системе высшего педагогического образования.....                                  | 452 |
| <b>Собирова Пошшаой Эркин кизи</b>                                                                                                            |     |
| Современные педагогические концепции и структурные элементы игровых технологий.....                                                           | 455 |
| <b>Хафизова Машхура Аминовна</b>                                                                                                              |     |



# INTEGRATSION YONDASHUV ASOSIDA BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINFI O'QITUVCHILARINING KASBIY SIFATLARINI SHAKLLANTIRISHNING METODIK TIZIMI


**Boynazarova Munajat**

Shahrisabz davlat pedagogika instituti 2-bosqich magistranti

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada bo'lajak boshlang'ich sinfi o'qituvchilarining kasbiy sifatlarini shakllantirishda integratsion yondashuvning metodik asoslari yoritiladi. Kasbiy sifatlarining motivatsion, kognitiv, operatsion-faoliyat, kommunikativ hamda refleksiv komponentlari tizimli yondashuv asosida tahlil qilinadi. Integrativ metodik model ishlab chiqilib, uning tarkibiy bloklari, bosqichlari hamda amalga oshirish shartlari ilmiy jihatdan asoslab beriladi. Tadqiqot doirasida o'tkazilgan dastlabki diagnostik tahlil natijalari motivatsion va refleksiv komponentlarni rivojlantirish zaruriyatini ko'rsatib, integratsion metodik tizimni joriy etish muhimligini tasdiqlaydi. Taklif etilgan tizim pedagogik jarayonning yaxlitligini ta'minlash hamda bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** integratsion yondashuv, kasbiy sifatlar, metodik tizim, kompetentlik, boshlang'ich ta'lim, pedagogik integratsiya, metodik model, refleksiya, diagnostika.

**Abstract:** The article reveals the methodological foundations of forming the professional qualities of future primary school teachers based on an integrative approach. The motivational, cognitive, operational-activity, communicative, and reflective components are analyzed from a systemic perspective. An integrative methodological model is developed, and its structural blocks, implementation stages, and pedagogical conditions are scientifically substantiated. The results of preliminary diagnostics indicate the need to further develop the motivational and reflective components. The proposed system ensures the integrity of the pedagogical process and contributes to improving the effectiveness of professional training of future primary school teachers.

**Key words:** integrative approach, professional qualities, methodological system, competence, primary education, pedagogical integration, methodological model, reflection, diagnostics.

**Аннотация:** В статье раскрываются методические основы формирования профессиональных качеств будущих учителей начальных классов на основе интеграционного подхода. В системном аспекте анализируются мотивационный, когнитивный, операционно-деятельностный, коммуникативный и рефлексивный компоненты профессиональных качеств. Разработана интегративная методическая модель, обоснованы её структурные блоки, этапы реализации и педагогические условия внедрения. Результаты первичной диагностики показали необходимость дальнейшего развития мотивационного и рефлексивного компонентов. Предложенная система обеспечивает целостность педагогического процесса и способствует повышению эффективности профессиональной подготовки будущих учителей начальных классов.

**Ключевые слова:** интеграционный подход, профессиональные качества, методическая система, компетентность, начальное образование, педагогическая интеграция, методическая модель, рефлексия, диагностика.

## KIRISH

Zamonaviy ta'lim tizimi o'qituvchi shaxsiga nisbatan an'anaviy "bilim beruvchi" roldan "ta'lim jarayonini loyihalovchi, boshqaruvchi va refleksiya qiluvchi" rolgacha o'tishni talab etmoqda. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim bosqichi o'quvchilarda o'qish savodxonligi, mantiqiy fikrlash, nutq, ijtimoiy ko'nikmalar va qadriyatlar shakllanadigan poydevor davr bo'lgani sababli, bu bosqich o'qituvchisining kasbiy sifati ta'lim natijalarining bevosita determinantiga aylanadi. Shu nuqtayi nazardan, bo'lajak boshlang'ich sinfi o'qituvchilarini kasbiy jihatdan tayyorlash jarayonida kasbiy sifatlarini rivojlantirish masalasi dolzarb ilmiy-amaliy muammo sifatida namoyon bo'ladi.

**MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI**

Pedagog shaxsining kasbiy shakllanishi jarayonini tizimli yondashuv asosida izohlagan Slastenin pedagogik faoliyat samaradorligi o'qituvchining shaxsiy va kasbiy xususiyatlari integratsiyasiga bog'liqligini ko'rsatadi <sup>[1]</sup>. Markova kasbiy kompetentlikni shaxsning motivatsion-qiymat yo'nalganligi, kasbiy tafakkuri, faoliyat usullari hamda refleksiv imkoniyatlari birligi sifatida talqin etadi <sup>[2]</sup>.

Zimnyaya kompetensiyani ko'p komponentli natija sifatida asoslab, uning shakllanishi integrativ ta'lim muhiti hamda faoliyat jarayoniga bog'liq ekanligini ta'kidlaydi <sup>[3]</sup>.

Shulman esa fan mazmuni va uni o'qitish metodikasini birlashtiruvchi "pedagogik mazmuniy bilim" konsepsiyasini ilgari surib, o'qituvchining kasbiy tayyorgarligida integratsiyaning hal qiluvchi rolini ko'rsatadi <sup>[4]</sup>.

Zamonaviy tadqiqotlar ham o'qituvchining kasbiy kompetensiyasini integrativ yondashuv, diagnostika va refleksiya asosida rivojlantirish zarurligini qayd etadi <sup>[9-11]</sup>.

Amaliyot tahlili shuni ko'rsatadiki, bo'lajak o'qituvchilar tayyorgarligida ayrim holatlarda fanlararo aloqadorlik yetarli darajada yo'lga qo'yilmaydi, nazariya va amaliyot uzviy bog'lanmaydi, natijada kasbiy sifatlarni shakllantirish fragmentar xarakter kasb etadi. Shu bois kasbiy sifatlarni shakllantirishni integratsion yondashuv asosida metodik tizim ko'rinishida loyihalash zarurati yuzaga keladi. Kasbiy sifatlarni o'qituvchining kasbiy faoliyatni samarali bajarishini ta'minlaydigan shaxsiy-psixologik va kasbiy-pedagogik xususiyatlar majmuasidir. Ushbu sifatlarni nafaqat bilim va ko'nikmalar bilan, balki o'qituvchining qadriyatlari, motivatsiyasi, muloqot madaniyati, kasbiy tafakkuri va refleksiv o'zini boshqarish imkoniyatlari bilan ham bog'liq. Shuning uchun kasbiy sifatlarni "faqat bilim darajasi" bilan cheklash ilmiy jihatdan to'g'ri emas. Tadqiqot doirasida kasbiy sifatlarni motivatsion, kognitiv, operatsion-faoliyat, kommunikativ hamda refleksiv komponentlar asosida tizimlashtirildi. Markova ta'kidlashicha, motivatsion asos kuchli bo'lmaganda kasbiy o'sish barqaror bo'lmaydi <sup>[2]</sup>.

Kognitiv komponent pedagogika-psixologiya bilimlari, boshlang'ich ta'lim metodikasi, integratsion dars loyihalash bilimlari hamda didaktik qaror qabul qilish asoslarini qamrab oladi va Shulman konsepsiyasiga ko'ra fan mazmuni hamda metodikani uyg'unlashtirish bilan boyitiladi <sup>[4]</sup>.

Operatsion-faoliyat komponenti darsni loyihalash, ta'lim metodlarini tanlash, ta'limiy vaziyatlarni boshqarish, baholash va tahlil qilish kabi amaliy ko'nikmalarni o'z ichiga oladi. Kommunikativ komponent o'quvchi, ota-ona hamda hamkasblar bilan samarali muloqot qilish, hamkorlikni tashkil etish va konfliktlarni pedagogik yo'l bilan hal qilish qobiliyatlarini ifodalaydi. Refleksiv komponent esa o'z faoliyatini tahlil qilish, xatolarni aniqlash va tuzatish, o'z-o'zini baholash hamda kasbiy rivojlanishni rejalashtirish imkoniyatlarini qamrab oladi. Zimnyaya kompetensiyaviy natijaning muhim belgilaridan biri sifatida refleksiyani alohida ta'kidlaydi <sup>[3]</sup>.

Slastenin yondashuvida ushbu komponentlar o'zaro integratsiyada rivojlangandagina pedagogik faoliyatning yuqori natijadorligi ta'minlanadi <sup>[1]</sup>. Demak, kasbiy sifatlarni shakllantirish jarayoni ham integratsion yondashuv asosida tizimli yo'lga qo'yilishi lozim.

**TADQIQOT METODOLOGIYASI**

Mazkur tadqiqot doirasida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy sifatlarni shakllantirish jarayoni o'rganildi. Tadqiqot jarayonida ilmiy-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish, pedagogik kuzatish, suhbat, so'rovnoma hamda modelashtirish metodlaridan foydalanildi. Olingan ma'lumotlar umimlashtirilib, integratsion yondashuv asosida metodik tizim ishlab chiqildi. Integratsion yondashuvning metodik qiymati shundaki, u pedagogik tayyorgarlikni "fanlar yig'indisi" sifatida emas, balki "yagona kasbiy vazifaga xizmat qiluvchi tizim" sifatida tashkil etishga imkon beradi. Ushbu yondashuv fanlararo integratsiya, nazariya va amaliyot birligi, faoliyatga yo'naltirilganlik hamda refleksivlik kabi konseptual g'oyalarga tayangan holda amalga oshiriladi.

Fanlararo integratsiya doirasida pedagogika, psixologiya, metodika, axborot texnologiyalari hamda pedagogik amaliyot elementlari yagona yo'nalishda uyg'unlashtiriladi. Nazariya va amaliyot birligi tamoyiliga ko'ra, nazariy tushunchalar real pedagogik vaziyatlar bilan bog'lanadi. Faoliyatga yo'naltirilganlik kasbiy sifatlarning bevosita pedagogik faoliyat jarayonida shakllanishini ta'minlaydi. Refleksivlik esa o'z-o'zini tahlil qilish va pedagogik faoliyatni takomillashtirish mexanizmi sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu yondashuv Darling-Hammond tomonidan ilgari surilgan o'qituvchilar ta'limini amaliyot bilan uyg'unlashtirish hamda refleksiya orqali mustahkamlash g'oyasi bilan ham uyg'unlashadi <sup>[9]</sup>.

Integratsion yondashuv asosida taklif etilayotgan metodik tizim maqsad, mazmun, jarayon, shart-sharoitlar va natija bloklaridan iborat bo'lib, ular o'zaro bog'liqlikda pedagogik jarayonning yaxlitligini ta'minlaydi. Model "Maqsad → metodik tizim bloklari → natija" zanjiri asosida qurilib, mazmun bloki jarayon metodlari bilan uyg'unlashganda hamda pedagogik, tashkiliy va psixologik shart-sharoitlar ta'minlanganda kasbiy sifatlarni darajasining oshishi kutiladi. Ushbu modelning amaliy ahamiyati shundaki, u darslar va pedagogik amaliyotni fanlararo integratsiya asosida loyihalash imkonini beradi hamda refleksiv mexanizm orqali bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy o'sish dinamikasini boshqarishga xizmat qiladi.



## TAHLIL VA NATIJALAR

Metodik tizimning joriy etilish zarurati dastlabki diagnostik tahlil orqali asoslandi. Diagnostika jarayonida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy sifatleri komponentlar kesimida baholandi. Tahlil shuni ko'rsatdiki, ayrim talabarlarda kognitiv komponent nisbatan shakllangan bo'lsa-da, motivatsion va refleksiv komponentlarning barqaror emasligi kuzatildi. Bu holat integratsion yondashuv asosida metodik tizimni joriy etish orqali kasbiy sifatlarining aynan "ichki tayanchlari" (motivatsiya va refleksiya)ni kuchaytirish zarurligini tasdiqlaydi.

Taklif etilgan metodik tizimning ustun tomoni shundaki, u:

- fanlararo aloqani kuchaytiradi va bilimlarni amaliy vazifaga bog'laydi;
- darsni loyihalash va o'tkazishni kasbiy vazifa sifatida shakllantiradi;
- refleksiya kundaliklari va o'zini baholash mezonlari orqali kasbiy o'sishni boshqaradi;
- kommunikativ muhit va hamkorlikni kasbiy sifatni rivojlantirish vositasiga aylantiradi.

Caena ta'kidlagan "kompetensiya doiralari" yondashuvi bo'yicha kasbiy kompetentlikni rivojlantirish doimiy diagnostika va refleksiya bilan qo'llab-quvvatlanishi kerak <sup>[10]</sup>. OECD materiallarida ham o'qituvchi "o'quv muhitini dizayneri" sifatida ko'rilib, natijaga yo'naltirilgan integrativ dizayn muhimligi qayd etiladi <sup>[11]</sup>. Ushbu qarashlar taklif etilgan tizimning zamonaviy metodologik mosligini kuchaytiradi.

Tadqiqot natijasida kasbiy sifatleri shakllantirish jarayoni integratsion yondashuv asosida tizimli model ko'rinishida loyihalashtirildi hamda uning komponentlari o'rtasidagi funksional bog'liqlik aniqlashtirildi. Taklif etilgan metodik tizim kasbiy sifatlarining motivatsion, kognitiv, operatsion va refleksiv komponentlarini o'zaro uyg'un rivojlantirish mexanizmini asoslaydi.

**2-jadval: Kasbiy sifatleri baholash mezonlari va ko'rsatkichlari**

| Mezon               | Ko'rsatkichlar                                       | Baholash usullari          |
|---------------------|------------------------------------------------------|----------------------------|
| <b>Motivatsion</b>  | Kasbga qiziqish, o'zini rivojlantirish ehtiyoji      | So'rovnomalar, suhbat      |
| <b>Kognitiv</b>     | Integrativ dars nazariyasi va metodik bilim          | Test, yozma ish            |
| <b>Operatsion</b>   | Dars loyihalash, metod tanlash, vaziyatni boshqarish | Amaliy topshiriq, kuzatish |
| <b>Kommunikativ</b> | Hamkorlik, muloqot madaniyati                        | Kuzatish, rol o'yinlari    |
| <b>Refleksiv</b>    | O'z faoliyatini tahlil qilish, xatoni tuzatish       | Refleksiya kundaligi       |

Taklif etilgan metodik tizim pedagogika oliy ta'lim muassasalarida integrativ dars mashg'ulotlarini loyihalash, pedagogik amaliyot jarayonida kasbiy sifatleri rivojlantirish, diagnostika va baholash mezonlarini joriy etish hamda refleksiya kundaliklari orqali o'z-o'zini rivojlantirishni yo'lga qo'yish kabi yo'nalishlarda qo'llanishi mumkin.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Integratsion yondashuv asosida ishlab chiqilgan metodik tizim bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari-ning kasbiy sifatleri tizimli ravishda shakllantirishga xizmat qiladi. Tizim pedagogik jarayonning strukturaviy yaxlitligini ta'minlab, kasbiy sifatlarining motivatsion, kognitiv, operatsion-faoliyat, kommunikativ va refleksiv komponentlari o'rtasidagi funksional bog'liqlikni kuchaytiradi. Dastlabki diagnostik tahlil natijalari motivatsion va refleksiv komponentlarni rivojlantirish ehtiyojini ko'rsatib, integratsion metodik tizimni joriy etish zaruratini asoslaydi. Natijada taklif etilgan model pedagog kadrlar tayyorlash jarayonini modernizatsiyalash va kompetensiyaviy natijadorlikni oshirishga yo'naltirilgan metodik mexanizm sifatida qaraladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Сластенин В.А. Педагогика. – М.: Магистр, 2010.
2. Маркова А.К. Психология профессионализма. – М., 1996.
3. Зимняя И.А. Ключевые компетенции как результат образования. – М., 2004.
4. Shulman L.S. Knowledge and Teaching: Foundations of the New Reform // Harvard Educational Review, 1987. Vol. 57, №1.
5. Voloshyn M., Babkina M., Yaremko H. Pedagogical technologies for the development of students' professional competence // Revista Tempos e Espaços em Educação, 2022.



6. Mihaela S., Alrumaih H., Impagliazzo J. A Competency-Based Approach toward Curricular Guidelines // IEEE EDUCON, 2018.
7. Zakirova F.M., Hamraeva G.R. Kasb ta'lim yo'nalishi talabalarida raqamli kompetentligini rivojlantirish // Zamonaviy ta'lim, 2021, №3, 32–38.
8. Lutfillayev M.H., Djabbarov B.B. Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini oshirish // Ta'limda innovatsion texnologiyalar, 2023, №4, 18–30.
9. Darling-Hammond L. Teacher education around the world: what can we learn from international practice? // European Journal of Teacher Education, 2020.
10. Caena F. Teacher competence frameworks in Europe // European Commission Report, 2021.
11. OECD. Teachers as Designers of Learning Environments. – Paris: OECD Publishing, 2022.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2026. №3(1)**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.